



## TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

**Aripov Sotvoldi**

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti*

*“Tillar” kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarning roli, ularning o'quv jarayoniga ta'siri va samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning afzalliklari va ularni qo'llashdagi amaliy misollar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, innovatsiya, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, zamonaviy dars, raqamli ta'lim.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonining samaradorligi - uning ta'sirchanligiga bog'liq. Yangi yondashuvlar, aniq maqsadga yo'naltirilgan dars uslublari va ta'lim mazmunining ochib berilishi - ta'lim tizimidagi dolzarb masalalardandir. Ilm-fan jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda eskicha metodlardan voz kechish, innovatsion ta'limga o'tish zarurati tug'ilmoqda. Yaqin tariximizga nazar tashlasak, “innovatsiya” atamasi avvaliga ko'pchilikka notanish edi. Ammo hozirda bu tushuncha hayotimizning barcha sohalarida, xususan, ta'limda keng qo'llanilmoqda. Dastlab, bu yo'nalishda mamlakatimizda yetarli natijalarga erishilmagan bo'lsa-da, keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida muhim islohotlar amalga oshirildi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'limda ham o'z aksini topmoqda. Innovatsion yondashuvlar yoshlarning tafakkurini kengaytirish, bilim olish sifatini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab innovatsion metodlar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

O'quvchi yoki talaba - zamonaviy ta'lim markazida turadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar orqali bilim berish jarayoni kuchaytirilmoqda. Natijada, talabalar chuqur bilimga ega, o'z kasbining yetuk vakiliga aylanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. So'nggi besh yillikda olib borilgan islohotlar ta'lim tizimini takomillashtirish, uni iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtirish, ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratildi. Bu yo'nalishda bir qator strategik hujjatlar va qonunlar qabul qilindi, xususan, “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasi, Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa normativ-huquqiy asoslar.

Shubhasiz, bu islohotlarning barchasi - yosh avlodning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga qaratilgan. Innovatsion texnologiyalarni darslarda qo'llash, pedagoglar tomonidan zamonaviy





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yondashuvlardan foydalanish – buning muhim shartidir. Xususan, kreativ fikrlashni rivojlantirish, ilmiy va texnologik loyihalarda faol ishtirok etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish va bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarni qo'llashni talab etmoqda. Innovatsion texnologiyalar — bu yangicha o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini o'z ichiga olgan o'qitish texnologiyalaridir. Ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv munosabatlarni yo'lga qo'yish, darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Multimedia vositalari, Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Zoom), Elektron darsliklar va virtual laboratoriyalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda raqamli platformalar ta'limda keng qo'llanilmoqda. Bu: Dars materiallarini vizual ko'rinishda yetkazishga imkon yaratadi. Masofaviy ta'lim imkonini beradi. Har bir o'quvchining individual rivojlanishini kuzatishga sharoit yaratadi. Masalan, “Kahoot, Quizizz, Google Forms” orqali testlar o'tkazish, “Jamboard” orqali interaktiv taxta bilan ishlash — bular o'quvchini jalb qilishning samarali usullaridir. Ta'limda bu kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash zamon talabiga aylandi. Ular o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi. O'qituvchi esa darsni yaratuvchanlik bilan tashkil etgan holda o'z ishining natijasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Innovatsion faoliyat ham – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualari muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat. Bugungi kunda pedagogning innovatsion faoliyati:

- yangilikni qo'llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma'lum maqsadga yo'naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to'ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ta'lim sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish — zamonaviy taraqqiyotning ajralmas omilidir. Yangi pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va raqamli vositalar nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy salohiyati va kasbiy tayyorgarligini rivojlantiradi. Bu esa raqobatbardosh, bilimli va barkamol yoshlarni voyaga yetkazish yo'lida muhim qadamlardan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, strategiyalar va qonuniy asoslar esa ushbu jarayonni yanada jadallashtirib, yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Har bir pedagog zamon talablari asosida o'z ustida ishlashi, innovatsion metodlarni puxta o'zlashtirishi, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish yo'lida fidokorlik bilan xizmat qilishi zarur. Zero, innovatsion ta'lim — bu kelajak poydevori, taraqqiyot kafolati va milliy yuksalishning ishonchli yo'lidir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirov B. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020. – 256 b.
2. Hasanboyeva M. Innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 192 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003

